



**BUYRUQ**

2025 y. «22» 09

№ 154 4/2

**«Inventarizatsiyani tashkil etish  
va o'tkazish to'g'risida»**

O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni, 19-sonli "Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish"ni tasdiqlash to'g'risidagi standartga muvofiq "O'zbekiston" lokomotiv deposida yillik moliyaviy hisobot tuzish oldidan navbatdagi inventarizatsiya o'tkazishva tovar-moddiy zaxiralari, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va boshqa aktivlardan samarali foydalanishni tashkil etish hamda qarzdorliklarni kamaytirish maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, moliyaviy investitsiyalar, tovar-moddiy zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish qoldiqlarini, pul mablag'lari, qiymatliklar va qat'iy hisobdagi blanklarni, debitor qarzdorliklar va boshqa aktivlarni hamda majburiyatlarni inventarizatsiyadan o'tkazish tashkil etilsin.

2. Inventarizatsiya o'tkazish bo'yicha quyidagi komissiya tuzilsin:

Komissiya raisi: Bosh muhandis Dj.S. Ergashev

Komissiya a'zolari: Ta'mirlash ishlar bo'yicha boshliq o'rinbosari  
M.Y.Zulfiqorov

Ta'mirlash ishlar bo'yicha boshliq o'rinbosari  
J.M.Mirzaraxmedov

Bosh texnolog B.B.Xaitov

Ishlab chiqarish va texnika bo'limi boshlig'i  
A.U.Sadikov

Bosh hisobchi N.M.Djurakulov

Moddiy boyliklar bo'yicha hisobchi  
D.Sh.Nalibayev

Moddiy boyliklar bo'yicha hisobchi R.J.Jumayev

Asosiy vositalar bo'yicha hisobchi T.B.Sharipova

3. Inventarizatsiya o'z vaqtida o'tkazilishi, natijalarini tahlil qilish va inventarizatsiya natijalarini 2025 yil hisobotlarda aks ettirish bo'yicha ma'sul etib bosh muhandis belgilansin.

4. Inventarizatsiya o'tkazish jarayonida quyidagi qo'shimcha tadbirlar amalga oshirilsin:

- bir yildan ortiq turib qolgan tovar-moddiy boyliklar ro'yxati shakllantirilsin va turib qolish sabablari o'rganilsin;


- tashkilot faoliyati davomida foydalaniladigan, bir yildan ortiq turib qolgan tovar-moddiy boyliklarning qisqa muddatlarda foydalanish yuzasidan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilsin hamda ushbu chora tadbirlarning bajarilishi yuzasidan nazorat o'rnatilsin;

- tashkilot faoliyati davomida foydalaniladigan, bir yildan ortiq turib qolgan tovar-moddiy boyliklar ro'yxati shakllantirilsin va hisobdan chiqarish (sotish, hisobdan chiqarish) bo'yicha Jamiyat boshqaruv yig'ilishida ko'rib chiqish uchun taklif tayyorlansi;

- inventarizatsiya o'tkazish jarayonida mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya etilishi ta'minlansin.

5. Mazkur buyruq ijro nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

Depo boshlig'i



O.M. Maxsumov